



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI
2022- yil
yanvar- sentabr



SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra **4094,6** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **63,3** ming kishiga yoki **1,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 506,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,8 %**), qishloq aholisi soni **2 588,4** ming kishi (**63,2 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4094,6 ming kishi

Tabiiy o'sish

+63,3 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




36,8%

Qishloq



63,2%

Aholining tabiiy harakati, ming kishi




Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-sentabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2022- yil 1- oktabr holatiga



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining **33,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2022- yil 1- yanvar holatiga



2022- yil 1- yanvar holatiga Samarqand viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **247,6 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **68,5 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **228,9 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **75,3 ming kishini** tashkil etgan.

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2022- yil 1- yanvar holatiga




71,3 yosh

76,0 yosh

2022-yilning 1-yanvar holatiga Samarqand viloyati aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73,6** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **71,3** yoshga, ayollar uchun esa **76,0** yoshga teng. Shahar joylari **74,9** yosh, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **72,3** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022- yil 1- oktabr holatiga



Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	4008,8	4094,6	102,1
Samarqand sh.	559,1	570,4	102,0
Kattaqo'rg'on sh.	91,5	93,2	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	164,2	168,0	102,3
Bulung'ur	192,3	196,3	102,1
Jomboy	179,3	183,6	102,4
Ishtixon	262,8	268,5	102,2
Kattaqo'rg'on	280,9	286,3	101,9
Qo'shrabot	135,6	138,4	102,1
Narpay	218,2	222,3	101,9
Payariq	258,6	265,2	102,6
Pastdarg'om	365,3	372,9	102,1
Paxtachi	147,5	149,4	101,3
Samarqand	260,2	265,7	102,1
Nurobod	155,3	158,4	102,0
Urgut	528,9	541,7	102,4
Toyloq	209,1	214,3	102,5

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi

2022- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Samarqand viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **244,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,2** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **239,0** kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **9320,0** kishi, Samarqand shahrida **4753,3** kishi, Toyloq tumanida **765,4** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobot tumani **32,6** kishi, Qo'shrabot tumani **64,1** kishi, Paxtachi tumani **108,3** kishini tashkil etgan.

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi


1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Tug'ilganlarning taqsimlanishi




Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti


Urgut	12015	29,9 ‰
Samarqand sh.	9996	23,6 ‰
Pastdarg'om	7099	25,6 ‰
Payariq	6205	31,6 ‰
Ishtixon	5454	27,4 ‰
Kattaqo'rg'on	5311	25,0 ‰
Samarqand	5216	26,5 ‰
Toyloq	4378	27,6 ‰
Narpay	4076	24,7 ‰
Bulung'ur	3987	27,4 ‰
Jomboy	3859	28,3 ‰
Oqdaryo	3466	27,8 ‰
Qo'shrabot	3056	29,7 ‰
Paxtachi	2904	26,1 ‰
Nurobod	2875	24,4 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	1985	28,7 ‰

2022- yil yanvar- sentabr oylarida **81,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **26,9** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilda **27,5** promilleni tashkil etgan).


VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **14,5** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **4,9** promille bo'lgan).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi


2022- yil yanvar-sentabr, kishi



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **56,4 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **6,8 %** i – o‘simtalardan, **9,4 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,4 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,5 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,1 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **16,4 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr



2022- yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **20,7 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **26,0 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **53,3 %** ni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




■ Nikohlar, ming birlik

Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


Shahar va tuman nomi	Nikohlar soni	Koeffitsiyent (%)
Samarqand sh.	3 121	7,4 ‰
Urgut	2 971	7,4 ‰
Pastdargʻom	2 013	7,3 ‰
Kattaqoʻrgʻon	1 558	7,3 ‰
Payariq	1 524	7,8 ‰
Ishtixon	1 468	7,4 ‰
Samarqand	1 273	6,5 ‰
Bulungʻur	1 183	8,1 ‰
Toyloq	1 181	7,4 ‰
Narpay	1 148	7,0 ‰
Oqdaryo	964	7,7 ‰
Jomboy	960	7,1 ‰
Paxtachi	930	8,4 ‰
Qoʻshrabot	756	7,4 ‰
Nurobod	685	5,8 ‰
Kattaqoʻrgʻon sh.	594	8,6 ‰

Nikohlarning taqsimlanishi




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **22,3** mingta nikoh qayd etilgan boʻlib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **-0,9** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- sentabr oylarida **8,2** promille boʻlgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti


2022- yil yanvar-sentabr, birlik

Samarqand sh.	731	1,7 ‰
Pastdarg'om	323	1,2 ‰
Samarqand	318	1,6 ‰
Kattaqo'rg'on	305	1,4 ‰
Urgut	262	0,7 ‰
Payariq	254	1,3 ‰
Ishtixon	239	1,2 ‰
Narpay	203	1,2 ‰
Bulung'ur	195	1,3 ‰
Paxtachi	177	1,6 ‰
Toyloq	166	1,0 ‰
Kattaqo'rg'on sh.	160	2,3 ‰
Jomboy	145	1,1 ‰
Oqdaryo	136	1,1 ‰
Nurobod	113	1,0 ‰
Qo'shrabot	72	0,7 ‰

2022- yil yanvar- sentabr oylarida **3,8** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar- sentabr oylarida **1,0** promille bo'lgan).


Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar- sentabr



2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **24,0 %** i farzandsiz, **48,2 %** i bitta farzand bilan va **27,8 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Viloyat bo'yicha nikohdan ajrashganlarning soni 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **3799** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2022- yil yanvar- sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 7 053 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 11 143 kishini, migratsiya saldosi minus 4 090 kishini tashkil etdi. (2021- yil yanvar- sentabr oylarida minus 6 389 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

(kishi)

	2021 - yil yanvar- sentabr			2022- yil yanvar- sentabr		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha:	7697	14086	-6389	7053	11143	-4090
Samarqand sh.	4190	2152	2038	2994	1837	1157
Kattaqo'rg'on sh.	440	605	-165	289	638	-349
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	160	595	-435	365	385	-20
Bulung'ur	309	873	-564	254	643	-389
Jomboy	299	417	-118	251	337	-86
Ishtixon	420	1070	-650	290	781	-491
Kattaqo'rg'on	337	1065	-728	450	780	-330
Qo'shrabot	168	991	-823	244	653	-409
Narpay	169	672	-503	182	551	-369
Payariq	156	1245	-1089	270	878	-608
Pastdarg'om	149	823	-674	458	655	-197
Paxtachi	10	948	-938	17	883	-866
Samarqand	394	723	-329	560	581	-21
Nurobod	192	490	-298	117	444	-327
Urgut	21	1117	-1096	46	860	-814
Toyloq	283	300	-17	266	237	29

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 66-235-72-35